



FIRIBGARLIK JINOYATINING KELIB CHIQISH SABABLARI VA UNI BARTARAF ETISHGA OID XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

*O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti
magistratura tinglovchisi Mirzaraximov Zohirjon Ochilovich*

Annotatsiya: maqolada firibgarlik jinoyati tushunchasi, uning fuqarolik-huquqiy munosabatlardan farqli jihatlari haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Huquqbuzarliklar profilaktikasi, qonun hujjatlari, yuridik pedagogika firibgarlik, tushunchalar, soha vakolatlari, profilaktik metodlar, yakka tartibdagi profilaktikalar.

So'nggi yillarda mamlakatimizda sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, fuqaro va tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish choralarini kuchaytirish, odil sudlovni samarali ta'minlash hamda sudyalarning hamjamiyati rolini oshirish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, bugungi kunda o'zgalar mulkini talon-toraj qilishga qaratilgan jinoyatlarning ko'plab sodir etilishi, davlat va jamiyat iqtisodiy negizlariga jiddiy zarar yetkazmoqda.

Xususan, bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkka tajovuz qilish bilan bog'liq jinoyatlar orasida o'zganing mulkini firibgarlik yo'li bilan talon-toraj qilish tariqasidagi jinoyatlar soni yildan-yil keskin ortib bormoqda.

Jumladan, 2021 yil davomida firibgarlik bilan bog'liq 11 598 nafar shaxsga nisbatan 9 355 ta, 2022 yil davomida esa, 15 145 nafar shaxsga nisbatan 12 201 ta jinoyat ishi ko'rib chiqilgan.

Ushbu jinoyat ishlarining aksariyati Toshkent, Farg'ona viloyatlari hamda Toshkent shahar sudlari hissasiga to'g'ri kelib, Respublika bo'yicha ko'rilgan ushbu toifadagi ishlarining 50,4 foizini tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasiga muvofiq, firibgarlik deganda, aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiga bo'lgan huquqni qo'lga kiritish tushuniladi.



O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017 yil 11 oktyabrdagi “Firibgarlikka oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 35-son qarorida firibgarlik jinoyati ko‘rinishlari batafsil ko‘rsatib o‘tilgan. Unga ko‘ra, firibgarlik o‘zganing mulkini yoki mulkka bo‘lgan huquqini aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish yo‘li bilan qonunga xilof ravishda va tekin qo‘lga kiritishda ifodalanib, buning ta’sirida mulkdor (uning vakili), mulkning boshqa egasi yoki vakolatli organ mulkni yoki unga bo‘lgan huquqni boshqa shaxsga beradi, yoinki ushbu mulk yoki unga bo‘lgan huquq boshqa shaxs tomonidan olib qo‘yilishiga imkoniyat beradi.

Bundan tashqari, O‘zbek tilining izohli lug‘atida “**firibgarlik**” tushunchasining lug‘aviy ma’nosi – “aldamchilik, hiylagarlik” ma’nolari bilan izohlangan. Shuningdek, firibgarlikning usuli hisoblangan **ishonchni suiiste’mol qilishning** lug‘aviy ma’nosi esa, “insofsizlarcha, noqonuniy yoki yomonlik uchun foydalanish”ni anglatadi.

Demak, firibgarlik shaxsning boshqa bir shaxsni aldash yoki ishonchini suiiste’mol qilish orqali sodir etgan harakatida namoyon bo‘ladigan qilmish sifatida ifodalanadi.

Tarixiy manbalarga ko‘ra kishilik jamiyatda insonlar azaldan bir birlari bilan ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlarida, jamiyatda ma’naviy-axloqiy muhitni sog‘lomligida rostgo‘ylik alohida muhim o‘rin tutadi. Rostgo‘ylikning qarama-qarshisi - yolg‘onchilikdir.

Tahlillar natijasiga ko‘ra, firibgarlikning jinoiy-huquqiy jihatlari xorijiy davlatlar qonunchiligida ham milliy qonunchiligimiz bilan o‘xshash yondoshuv mavjudligi aniqlandi.

Xususan, **Qozog‘iston** (190-modda), **Ozarbajon** (178-modda), **Gruziya** (180-modda), **Belarus Respublikasi** (209-modda) va **Rossiya Federatsiyasining** (159-modda) jinoyat kodekslarida firibgarlik uchun javobgarlik belgilangan bo‘lib, firibgarlikning ta’rifi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida keltirilgan ta’rif bilan o‘xshash mazmunda aks ettirilgan.

Bundan tashqari, **Avstriya** Jinoyat kodeksining 22-bo‘limiga muvofiq (*Aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish*), o‘zi yoki uchinchi shaxs uchun noqonuniy moddiy foyda olish niyatida, xatoni tasdiqlash, yolg‘on faktlar mavjudligini ko‘rsatish yoki haqiqiy faktlarni buzish yoki berkitish orqali boshqa shaxsning mulkiga zarar etkazish firibgarlikni tashkil etadi (*uning turlari: kompyuter firibgarligi, subsidiya firibgarligi, kapital firibgarligi,*



sug'urtani suiiste'mol qilish, aylanma yo'l bilan foyda olish, kredit firibgarligi, ishonchni suiiste'mol qilish, ish haqi yoki ish haqini ushlab qolish va talon-taroj qilish).

Yaponiya Jinoyat kodeksining 246-moddasiga ko'ra firibgarlik boshqa shaxsdan mulkni aldash orqali egallashda ifodalanadi. Agar shaxs shu yo'l orqali o'zi yoki boshqa shaxs uchun noqonuniy mulkiy foyda ko'rsa, bunday harakatlar ham firibgarlik hisoblanadi (*uning turlari: kompyuter firibgarligi, ishonchni suiiste'mol qilish, kvazi-firibgarlik, tovlamachilik*).

Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat kodeksining 263-moddasida o'zi yoki uchinchi shaxs uchun noqonuniy mulkiy naf olish maqsadida boshqa shaxsning mulkiga yolg'on faktlar haqida xabar berish yoki haqiqiy faktlarni buzish yoki yashirish orqali zarar etkazish, aldash yoki aldanishni qo'llab-quvvatlash firibgarlik hisoblanadi (*uning turlari: kompyuter firibgarligi, subsidiya firibgarligi, kapital firibgarligi, sug'urtani suiiste'mol qilish, aylanma yo'l bilan foyda olish, kredit firibgarligi, ishonchni suiiste'mol qilish, ish haqi yoki ish haqini ushlab qolish va talon-taroj qilish*).

Bundan ko'rinadiki, ayrim ilg'or xorijiy davlatlarning jinoyat qonunchiligida firibgarlikning turlari alohida jinoyat tarkibi sifatida belgilangan.

Ob'ektiv belgilar deganda jinoyat tarkibining ob'ekti va ob'ektiv tomonlarini ta'riflovchi belgilar nazarda tutiladi.

Firibgarlik jinoyatining bevosita ob'ekti - o'zganing mulki yoki mulkiy huquqlarini muhofaza qilishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar.

Yuridik adabiyotlarda firibgarlikning ob'ekti sifatida mulkka bo'lgan huquq, mulkiy manfaatlar, iqtisodiy kategoriya, yuridik kategoriya, iqtisodiy va huquqiy kategoriyalar yig'indisi degan qarash mavjud.

Firibgarlikning predmeti mulkdan tashqari yuridik kategoriya sifatida o'zganing mulkiga bo'lgan huquq, mulkka bo'lgan alohida vakolatlar tushuniladi.

Bu huquqlar turli xil hujjatlarda, masalan, vasiyatnoma, sug'urta polisi, muayyan boyliklarni olish uchun ishonchnoma, turli xil qimmatli qog'ozlarda mustahkamlangan bo'lishi mumkin.

Ob'ektiv tomondan firibgarlik aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiy huquqini egallashdan iborat.



Ushbu jinoyatning o'ziga xosligi shundaki, tashqi tarafdin mulkdor tomonidan mulkni "ixtiyoriy" ravishda berish yoki begonalashtirish va jinoyatchiga o'tkazish kuzatiladi. Bunda, aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish talon-toraj qilishning zaruriy usuli sifatida ifodalanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017 yil 11 oktyabrdagi "Firibgarlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 35-son qaroriga muvofiq o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiga bo'lgan huquqni firibgarlik bilan qo'lga kiritish usuli sifatida aldov aktiv yoki passiv bo'lishi mumkin.

Xususan, aybdor tomonidan, bila turib, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan yolg'on ma'lumotlar xabar qilinishi yoki ish holati bo'yicha mulkdor, mulkning boshqa egasiga ma'lum qilinishi lozim bo'lgan haqiqiy faktlarni yashirish yoxud bunday shaxslarni yanglishtirishga qaratilgan qasddan sodir etilgan harakatlar aktiv aldov hisoblanadi. Passiv aldov esa, shaxs qonuniy asoslarga muvofiq ma'lum qilishi lozim bo'lgan haqiqiy faktlarni qasddan xabar qilmasligida ifodalanadi.

Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasi Oliy sudlari firibgarlik jinoyatiga oid Plenum qarorlarida ham yuqorida keltirilgan ta'rif bilan o'xshash mazmunda aks ettirilgan.

Yuridik adabiyotlarda aldash deganda, mol-mulk egasi yoki mol-mulk ishonib topshirilgan shaxsning o'zi uni firibgarga ixtiyoriy ravishda, o'z xohishi bilan berishiga erishish maqsadida, jabrlanuvchini chalg'itish uchun aybdor shaxs tomonidan har qanday faktni buzib ko'rsatish yoki haqiqatni yashirish yoxud bila turib yolg'on ma'lumotlarni xabar qilish tushunilishi bayon etilgan.

Firibgarlikning talon-tarojdagi o'g'rilik, talonchilik, bosqinchilik shakllaridan farqi ham jabrlanuvchining o'zi mulkni aybdor shaxsga ishongani yoki aldangani sababli ixtiyoriy ravishda berib yuborishida ifodalanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aldashda firibgarining asosiy maqsadiga, ya'ni aldangan kishi jinoyatchiga o'z mulkini yoki mulkiy huquqini ixtiyoriy ravishda berishiga erishish ko'zda tutiladi deyish mumkin.

Ishonchni suiiste'mol qilish bu boshqa shaxsning mulkini yoki mulkka bo'lgan huquqini firibgarlik yo'li bilan talon-toraj qilishning ikkinchi usuli hisoblanadi.



Shuni ta'kidlash lozimki, "ishonch" tushunchasi ko'p uchrab turishiga qaramasdan, uning qonunchilikda belgilangan ta'rifi mavjud emas va umumiy huquq nuqtai nazaridan baholanishi lozim.

Yuridik adabiyotlarda keltirilgan ta'riflarni umumlashtirgan holda ishonch bu xabar qilinayotgan holat va faktlarni yoki sodir etilayotgan harakatlarni haqqoniy ravishda, hech qanday isbottalab etmasdan, to'liq va so'zsiz qabul qilish, deyilishi mumkin.

Ishonchni suiiste'mol qilish deganda, aybdor shaxs tomonidan o'zganing mulkini qonunga xilof ravishda o'z foydasiga olish uchun o'zi va mulk egasi yoxud mulk egaligi ixtiyorida turgan shaxs o'rtasidagi alohida, o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlardan qonunga xilof ravishda mulkni o'z foydasiga olish uchun foydalanishi tushunilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 35-son qarorida ishonchni suiiste'mol qilish deganda, aybdorning mulkdor, mulkning boshqa egasi yoki mulkni uchinchi shaxslarga berib yuborish to'g'risida qaror qabul qilishga vakolatli boshqa shaxslar bilan ishonchli munosabatlardan g'arazli maqsadlarda foydalanishi tushunilishi nazarda tutilgan.

Nazariyotchi olimlarning fikriga ko'ra odatda, ishonchga asoslangan munosabatlar firibgar va jabrlanuvchi shaxs o'rtasida prokat, ijara, oldi-sotdi, topshiriq shartnomasi va h.k.larda vujudga kelishi mumkin. Firibgar niyatiga erishish uchun xizmat, qarindoshchilik, do'stlik munosabatlaridan ham foydalanishi mumkin.

Ishonchni suiiste'mol qilishning aldashdan farqi shundaki, aldash jabrlanuvchida aybdorga nisbatan ishonch munosabatlari shakllantirib, aybdorga o'z mulkini topshirish maqsadiga qaratilgan faol harakatlarda ifodalanadi. Ya'ni, aldash jabrlanuvchida aybdorga nisbatan ishonchni shakllantiruvchi muhim element deyish mumkin.

Shu bilan birga ta'kidlash joizki, Oliy sud Plenumining 2017 yil 11 oktyabrdagi 35-son qaroriga asosan firibgarlik o'zganing mulki qo'lga kiritilgan va aybdorda o'z ixtiyoriga ko'ra talon-toroj qilingan mulkni tasarruf etish imkoniyati paydo bo'lgan paytdan boshlab tugallangan jinoyat hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston nashryoti, 2021. 62,453-betlar.



Google
Scholar



2. R.M.Maxmudov. Jamoat tartibini saqlashda jinoyatlarni oldini olishning vositalari. T.: Akademiya.1998 yil.
3. Н.Островский. Педагогические основы профилактики правонарушений. Т.Фан 1988 г.
4. D.M.Mirazaov. Firibgarlik jinoyatlarining profilaktikasi bo'yicha xudud metodikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma.T.-2019. bet-76.